

YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDA TIZIMLI YONDASHUV TEXNOLOGIYASINING OLIY TA'LIM TALABALARI TARBIYASIDAGI O'RNI

*Samarqand Davlat pedagogika Pedagogika
instituti o'qituvchisi – Qulmurodova S.S.*

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, xulq atvor, maqsad, tarixiy, tajriba, sifat, bilim, malaka, yosh avlod, shaxs, ko'nikma.

Keywords: upbringing, education, behavior, goal, historical, experience, quality, knowledge, a qualifications, a younger generation, skills.

Ключевые слова: воспитание, образование, поведение, цель, исторический, опыт, качество, знания, квалификация, молодое поколение, навыки.

Annatatsiya: Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak manaviyati keng dunyo qarashini tafakkurni shakillantirish, atrof muhitga ogohlik va sergaklik ruhida tarbiyalash davr talabiga aylanib borayotganligi haqida so'z boradi.

Annatiation: High world's vicinity of the young Avlan in this article tells us that educating the thinking of thinking, environmental awareness, and vigilance.

Аннатиация: окрестности в высоком мире молодого Авлан в этой статье говорит нам, что обучение мышления мышления, экологической осведомленности и бдительности.

Jahon miqyosida yoshlar ma'naviy tarbiyasida tizimli yondashuvning innovatsion texnologiyalari takomillashtirish jarayoni hozirgi zamon pedagogika fanining muhim muammosi sifatida e'tirof etilib oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni ma'naviy jihatdan tizimli yondashuvda innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish interaktiv dasturiy vositalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda yoshlarning ma'naviy tarbiyasini tizimli yondashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalari tahliliga ko'ra aniqlash, motivatsion komponentalar asosidagi faoliyatning ongli munosabatlarini tarkib toptirishdagi imkoniyatlarini aniqlash, hamda yoshlarning ma'naviy tarbiyasida tizimli yondashuvning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish tadbirlarining ta'sirchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda, globallashtirish sharoitida talabalarning ma'naviy jihatdan ularni ijtimoylashuvini tizimli holda rivojlantirish nazariyasiga tayangan holda oliy ta'lim tashkiloti, oila va boshqa ijtimoiy institutlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish hamda takomillashtirish orqali yoshlarning ma'naviy tarbiyasida tizimli yondashuvning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni rivojlanmoqda.

Hozirgi vaqtda ma'naviy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarimizni yoritishga bag'ishlangan ilmiy-uslubiy ishlar, asosan xususiy hollarda ya'ni bir allomaning yoki boshqa bir aziz avliyolarimizning hayoti ijodi va ilmiy kashfiyotlari haqida bo'lib unda biror-bir pedagogik metod uslublardan foydalanib ularni targ'ib qilish ishlari yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli qarorida "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar" belgilangan [1]. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholini ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilayotganligi" bu jarayon bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki: buyuk mutafakkirlarimiz, allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning hayoti, ijodi va buyuk kashfiyotlaridan olingan ma'naviyat olamiga, milliy qadriyatlarga an'analarga va urf-odatlarga boy materiallarni mustaqillik yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarimiz bilan uyg'unlashtirilgan holda tizimli yondashuv asosida hayotga tadbiq etish masalasi dolzarbdir.

Shu asnoda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini yanada oshiradi. Oliy ta'lim talabalarini rivojlanib borayotgan texnologiyalar asosida bilim darajasini rivojlantirish, ajdodlarimizning ilmiy ma'naviy me'roslarini o'rganishda innovatsion texnologiyalarga tizimli holda yondashish samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida tan olinmoqda.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o'zgartishlar kiritish bo'lib, bu masalaga pedagogik faoliyatning psixologiyasi nuqtai nazari bilan qaraganda, ta'lim-tarbiya berish jarayonida professor o'qituvchilar qator vazifalarni bajarishi kuzatiladi. Ularning muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: axborot berish, hayot yo'lini tanlashni o'rgatish, madaniylashtirish, o'zini anglashni o'rgatish, pozitiv "Men"ni shakllantirish, kasbga tayyorlash, o'zini nazorat qilishni o'rgatish, motivlashtirish, muloqotga tayyorlash (jumladan kasbiy), qadriyatlarni shakllantirish, maqsadni shakllantirishni o'rgatish. Tizimli tahlilda tamoyillarni asoslash-uslubiy konsepsiyani belgilashning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, axborot texnologiyalarining kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish asosida ta'lim jarayonida yoshlar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish yo'nalishida kamdan-kam ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Boshqaruvda tizimli yondashuv masalasiga e'tibor qaratilganda shuni qayd etish mumkinki, tizimli yondashuv tashkilotni bir butun yaxlit elementlardan tashkil topgan

tizim sifatida ifodalaydi. Demak, yoshlar tarbiyasida tizimli yondashuv asosida ularning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasiga e'tiborni qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Elementlari bir-biri bilan bog'liq bo'lgan pedagogik tizimdan tarbiya jarayonning maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Pedagogik tizimni boshqaradigan rahbar tashkilotning umumiy maqsadlariga erishish uchun uni yaxlit tizim sifatida ekanligidan kelib chiqishi kerak. Shu bilan birga, uning barcha qismlarining o'zaro ta'sirini aniqlash va baholashga intilish va ularni butun tashkilotga o'z maqsadlariga samarali erishish imkonini beradigan asosda birlashtirish vazifasini o'z zimmasiga olishi zarur.

Xulosa qilib aytganda ta'limda yoshlar ma'naviy tarbiyasini tizimli yondashuv asosida rivojlantirishda ajdodlarimizning buyuk kashfiyotlari va ijodiy ishlarining namunalarini virtual lavhalar sifatida kompyuter imitatsion modellar yordmida obrazli tarzda namoyish etish, yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi borasidagi ilmiy-tadqiqotlar bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlarto'g'risida" PQ-4307-sonli Qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni;
3. Ibodov J.H., Matviyevskaya G.P. Ahmad al-Farg'oniyning riyoziyot va falakiyot tarixidagi o'rni. – Toshkent, 1998-y;